

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

UDK: 94(575.121)"1991/2020"

ORCID: 0009 0002 3381 8661

YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA TASHQI INVESTITSIALARNING O'RNI (Farg'ona vodiysi misolida).

Raxmonov Elyor Abdullajonovich
tarix fanlari boyicha f.f.n, PhD.
elyor.abdullajonovich@gmail.com
+99890 565 1235

Annotatsiya. Maqolada Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qatorida aholi bandligini ta'minlashda olib borilayotgan ishlar, jumladan Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida tashqi investitsiyalarning jalb etish orqali aholi bandligini ta'minlash jarayonlarining rivojlanishi ba'zi ilmiy mulohazalar orqali o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'z va iboralar: aholi bandligi, ishsizlik, tashqi investitsiya, ijtimoiy himoya, ishsizlik nafaqalari, kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, qo'shma korxonalar, investitsiyaviy jozibadorlik.

РОЛЬ ВНЕШНИХ ИНВЕСТИЦИЙ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ (на примере Ферганской долины).

Аннотация. В статье освещается роль проводимых в новом Узбекистане широкомасштабных реформ в обеспечении занятости населения, в том числе развитие процессов обеспечения занятости населения за счет привлечения внешних инвестиций на примере областей Ферганской долины.

Ключевые слова и выражения: занятость, безработица, иностранные инвестиции, социальная защита, пособия по безработице, малый бизнес, частное предпринимательство, совместные предприятия, инвестиционная привлекательность.

"THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENTS IN ENSURING EMPLOYMENT IN NEW UZBEKISTAN (Case study of the Fergana Valley)."

Abstract: This article discusses the ongoing large-scale reforms in New Uzbekistan, focusing on efforts to ensure employment. It highlights the role of attracting foreign investments to ensure employment, with a particular emphasis on the development of employment processes in the regions of the Fergana Valley, supported by scientific reflections on their impact.

Key words and expressions: employment, unemployment, external investment, Social Protection, unemployment benefits, small business, private enterprise, joint ventures, investment attractiveness.

KIRISH. Aholini ijtimoiy himoyalashda tashqi investitsiyalarning[5] o‘rni muhim ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki bu ham mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishi ham aholi bandligini ta‘minlab insonlarni ijtimoiy yaxshilashga xizmat qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimizda mustaqillik yillarida iqtisodiyot tarmoqlariga investitsiyalarni keng jalb etishga alohida ahamiyat qaratib kelindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida: “Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo‘lsa, o‘z iqtisodiyotining barqaror o‘shishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya – bu iqtisodiyot drayveri, o‘zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Biz faqat investitsiyalarni faol jalb qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish hisobidan iqtisodiyotimizni jadal rivojlantirishga erishamiz. Iqtisodiyotdagi ijobiy natijalar esa ijtimoiy sohada to‘planib qolgan muammolarni tizimli hal etish imkonini yaratadi. Buni hammamiz chuqur tushunib olishimiz va ishimizni shu asosda tashkil etishimiz shart. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun mamlakatimizning investitsiya salohiyatini to‘la namoyon etish choralarini ko‘rishimiz kundalik hayotimizdan joy olgan eng dolzarb masalalardan biri bo‘lmog‘i lozim”[1], deb ta‘kidlab, xorijiy investitsiyalarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi g‘oyat muhim ahamiyatini va uni jalb qilish orqali aholi turmush farovonligini oshirilishining dolzarbligini e‘tirof etadi.

Bu borada ishlar, ayniqsa, 2017-yildan boshlangan islohotlar jarayonida katta e‘tibor qaratildi. Bugungi kunda investitsiya turli manbalarda, xususan, iqtisodiy-moliyaviy adabiyotlarda turlicha talqin qilinib kelinmoqda. Investitsiya- (nem.investitlion, lat. investire-kiyintirmoq)-investor tomonidan biror bir faoliyatni amalga oshirish uchun kapital mablag‘larni, sarmoyalarni joriy qilish, foyda olish maqsadida sarf qilish. Investitsiya mamlakat ichida (ichki investitsiya) va xorijiy mamlakatlarda (tashqi investitsiya) amalga oshirilishi mumkin. Moliya investitsiyasi qimmatbaho qog‘ozlarni xarid qilish, pul mablag‘larini jamg‘arish va boshqalarni, real investitsiya moddiy ishlab chiqarishga sarflangan sarmoyalarni o‘z ichiga oladi[4].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo‘lib, unda O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan 2023 yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar qatorida aholi

bandligini ta'minlashda olib borilayotgan ishlar, jumladan tashqi investitsiyalarning jalb etish orqali aholi bandligini ta'minlash natijalari yoritilgan bo'lib, huquqiy me'yyoriy xujjatlar, ilmiy jurnallar, monografiyalar, darsliklar, arxiv materiallari, statistik to'plamlar hamda tadqiqotchilarning dissertatsiyalaridan iqtiboslar keltirilgan. Jumladan, tadqiqotchilar: Haydarov G'. "Namangan viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik aloqalari tarixi (2018-2021 yy.)", Tursunov M.B. "Qishloq yoshlarining ish bilan bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli", Abdullaev O. "Farg'ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari" va boshqa ko'plab tadqiqot ishlarida Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar qatorida aholi bandligini ta'minlashda olib borilayotgan ishlar, jumladan Farg'ona vodiysi viloyatlari misolida tashqi investitsiyalarning jalb etish orqali aholi bandligini ta'minlash jarayonlarining rivojlanishi masalasiga doir ma'lumotlar ochib berilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. O'zbekiston Respublikasining huquqiy hujjatlarida xorijiy sarmoyalar ishtirokida tashkil topgan qo'shma korxonalarga beriladigan imtiyozlar, uni ochish shart-sharoitlari, tartibi belgilab qo'yilgan. Masalan, Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 2-iyul kungi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish, Davlat ro'yxatidan o'tkazish va tugatish tartibi to'g'risida"gi 336-sonli qarorida belgilab berilgan. Va unga 1998-yil 27-mart kuni 134-qarori bilan o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilgan[3]. Respublikaning barcha hududlaridagi qo'shma korxonalar shu qarorlar asosida tartibga solib turilgan. Mamlakatdagi xorijiy mamlakatlarning elchilarining tashabbuslari bilan ham joylarda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib, katta-katta loyihalar qilingan.

Shuningdek, o'tgan davrda investitsiya loyihalarini bajarishda kamchiliklarga ham yo'l qo'yilishi oqibatida davlat iqtisodiyotida ma'lum bir darajada barqaror o'sish ta'minlanmadi. Ayniqsa, investitsiya loyihalarini aniq reja asosida tayyor qilinmaganligi, loyihalarni bajarishda chet el investorlari mablag'larini ishlab chiqarishga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirilmasligiga sabab bo'ldi. Investitsiya mablag'larining sanoatga yo'naltirilmaganligi oqibatida ko'plab sanoat korxonalarida texnologik yangilash, modernizatsiya yumushlarining amalga oshirilmassligiga olib keldi. Korxonalarda modernizatsiya ishlarining amalga oshirilmaganligi ularning bankrot bo'lishligiga sabab bo'libgina qolmay, balki ularni bankrotlikdan chiqarish va sog'lomlashtirishni zimmasiga olgan tijorat banklari ham zarar ko'rdi.

O'zbekiston, jumladan, Farg'ona vodiysi viloyatlarida ham mustaqillikning ilk kunlaridan aholini ijtimoiy himoya qilish maqsadida mavjud korxonalarga ichki va tashqi investitsiyalar jalb etib borildi. Bozor iqtisodiyoti va aholining ish bilan ta'minlash zarurati kichik korxonalar sonini ortishiga va mavjudlarini yanada rivojlanishiga zamin hozirladi. O'tish davrida mamlakat iqtisodiyotini oyoqqa turg'azish va uni yanada yuksaltirish, aholining ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida tadbirkorlik va ishbilarmonlikning barcha shakllarini rivojlantirish[8], xususiy korxonalarni tashkil etish uchun sharoit yaratish tarixiy zaruratga aylandi.

Farg‘ona vodiysining viloyatlarida ham bu borada samarali ishlar amalga oshirilib, aholini ijtimoiy ahvoli tubdan o‘zgarib bormoqda. Yuzlab xorijiy va mahalliy investorlar ko‘magida qator qo‘shma korxonalar tashkil etilib, bir necha bo‘sh ish o‘rinlari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi, xususan, Farg‘ona vodiysida aholi sonining mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan ko‘pligi bo‘sh ish o‘rinlariga ehtiyojni ortishiga olib keladi. Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyingi eng katta muammolardan biri bu aholini ish bilan ta‘minlash bo‘lib qoldi. Shuning uchun mamlakat bu vaziyatdan chiqish uchun mulklarni davlat tasarrufidan chiqarib xususiylashtirishga ruxsat berdi. Shuningdek, aholiga ijtimoiy ko‘maklashish uchun mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar ishtirokida korxonalar tashkil etish va bu orqali ular bandligini oshirishga va ijtimoiy ahvolini yaxshilash alohida e‘tibor qaratdi[9].

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida, mamlakat rahbarining va Vazirlar Mahkamasining qator farmon va qarorlarida bu huquqiy jihatdan mustahkamlanib qo‘yildi. Shu qonunosti hujjatlar asosida Farg‘ona vodiysida xorijiy hamkorlar hamda mahalliy tadbirkorlarning tashabbuslari bilan bir qator qo‘shma korxonalar tashkil etildi va bu orqali ularning ijtimoiy ahvoli imkon qadar yaxshilandi. Zero, har bir mamlakat taraqqiyotida fuqarolarning ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash mamlakatning bosh mezoniga aylanishi kerak.

Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 2-avgustda investitsion muhitning jozibadorligini oshirish maqsadida “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni[10] e‘lon qilindi. Mazkur farmoni ijrosi yuzasidan 2018-yilda Andijon viloyatining investitsiya dasturi doirasida umumiy qiymati 1,8 trillion so‘mga teng bo‘lgan 411 ta loyiha amalga oshirilib, 12 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi[11].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlangan “2016-2019-yillarda Namangan viloyatining sanoat salohiyatini rivojlanirish dasturi”[12] asosida 5 mlrd AQSH dollar bo‘lgan 342 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish nazarda tutilgan[2.B-85]. Namangan viloyati xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini jadallashtirish maqsadida xalqaro turli mazmundagi investitsiya forumlari tashkil qilindi. Jumladan, viloyatda o‘tkazilgan xalqaro “Doing Business with Namangan – 2019” investitsiya forumidan ko‘zlangan asosiy maqsad esa qator xorijiy davlatlar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, viloyatning investitsion salohiyatini yanada oshirish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, hududlarni barqaror rivojlantirish, yangi ish o‘rinlarini barpo qilish, aholi bandligini ta‘minlash, barcha mavjud resurslar imkoniyatidan oqilona foydalanishga qaratildi. Mazkur Forumda Rossiya, Turkiya, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Eron, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Italiya, Gollandiya, Belgiya, Avstriya, Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Misr, Quvayt, Isroil, Singapur, Ummon, BAA, Tayland, Malayziya, Ozarbayjon, Qozog‘iston, Polsha, Latviya, Lyuksemburg, Tojikiston, Belarus, Bolgariya, Gruziya, Indoneziya va Ukraina davlatlaridan 300 ga yaqin xorijiy kompaniyalarning vakillari ishtirok etib, jami umumiy qiymati 320 million AQSH dollariga teng bo‘lgan 50 ga yaqin kelishuv bitimlar imzolandi. Masalan, Hindistonning “Ultimate Investment” kompaniyasi raisi M.Gupta bilan o‘tkazilgan muzokaralarning yakuniga

ko‘ra, mehmonxonalar va biznes markazi qurish bo‘yicha umumiy qiymati 50 million AQSH dollariga teng bo‘lgan Bitimga asos solindi. Natijada Namangan viloyatida 2019-yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokida 140 ga yaqin korxona muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan[6].

Farg‘ona viloyatida investitsiya dasturiga muvofiq 2020-yilda qiymati 7 trln. so‘m bo‘lgan 737 ta loyihalarni amalga oshirish hisobiga 20 ming 50 ta yangi ish o‘rinlari yaratilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib, yanvar-noyabr oylarida 4,1 trln. so‘mlik 552 ta loyihalar foydalanishga qabul qilindi. Ushbu loyihalar doirasida 11 ming 997 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. Jumladan, 2020-yilda “Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasida 41 ta investitsiya loyihalari amalga oshirilishi natijasida 1,3 trln. so‘mlik yoki 136,4 mln dollarlik import o‘rnini bosuvchi eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarildi. Buning natijasida ushbu loyihalar hisobiga 2 ming 500 dan ortiq ish o‘rinlari yaratildi[13].

Keyingi yetti yilda Farg‘ona viloyatiga qariyb 77 trillion so‘mlik investitsiyalar jalb etilgan. Ularning natijasida 116 mingta ish o‘rni va 4,5 milliard dollarlik eksport imkoniyati yaratilgan. Farg‘ona viloyatida xorijiy investor va mahalliy tadbirkorlar tomonidan umumiy qiymati 7 milliard dollardan ziyod 132 ta loyiha shakllantirilgan. Loyihalarga Avstriya, AQSH, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Saudiya Arabistoni, Quvayt, Yaponiya va Ozarbayjon kabi mamlakatlar kompaniyalari investitsiya kiritmoqda. Ular to‘qimachilik, oziq-ovqat, tibbiyot, elektrotexnika, qurilish materiallari, xizmat ko‘rsatish va boshqa tarmoqlarni qamrab olgan[14].

Andijon viloyatida ham chet el investitsiyalari asosida faoliyat olib borayotgan korxonalar soni yil sayin ortib, yangi ish o‘rinlari tashkil etib borilmoqda. Andijon viloyatida 2021 yil umumiy qiymati 1 milliard 433 million dollar bo‘lgan 616 ta loyiha foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Sohalar kesimida ularning 258 tasi sanoat, 185 tasi xizmat ko‘rsatish, 173 tasi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida. Natijada qariyb 10 trillion so‘mlik ishlab chiqarish quvvati tashkil etilib, 95 million dollarlik import o‘rnini bosish hamda 265 million dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi. 61 mingta yangi ish o‘rni ochiladi[15] Andijon viloyatida 2024-yilning 1-may holatiga, chet el investitsiyasi ishtrokida 335 ta korxonalar faoliyat ko‘rsatmoqda[16].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda mustaqillikning dastlabki yillaridan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy shartlaridan biri davlat tasarrufidagi mulklarni xususiylashtirish va chet el investitsiyalarini mamlakatga jalb qilish edi. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida mahalliy va chet el investitsiyasi hisobiga qator qo‘shma korxonalar barpo etilib xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qilgan.

So‘nggi yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasining barcha hududlarida mahalliy va chet el investitsiyasi hisobiga qator qo‘shma korxonalar barpo etilib, bir necha bo‘sh ish o‘rinlari yaratildi va xalq manfaatlari yo‘lida xizmat qilmoqda. Farg‘ona vodiysining viloyatlarida ham bu borada samarali ishlar amalga oshirilib, aholini ijtimoiy ahvoli tubdan o‘zgarib bormoqda.

Yangi O‘zbekistonda olib borilgan islohotlar natijasida Farg‘ona vodiysi viloyatlarida xorijiy hamkorlar hamda mahalliy tadbirkorlarning tashabbuslari bilan bir qator qo‘shma korxonalar tashkil etilib, erkin iqtisodiy zonalar barpo etildi. Buning natijasida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ishlab chiqarish darajasining ortishi hamda aholi bandligini ta’minlashiga olib keldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси, 2018 йил 29 декабрь.
2. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга курашимиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 85.
3. Абдуллаев И. Хорижий сармоялар иштирокида ташкил топган корхоналарга берилган имтиёзлар.// Андижоннома. – 2000 йил, 22 январь.
4. Иқтисодиётга оид атамалар ва тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 2004. – Б. 15-16; <http://idum.uz/uz/archives/9279>
5. Investitsiya deganda mulkdorning (investorning) pul mablag‘i, qimmatbaho qog‘ozlari, texnikasi va texnologiyasi, mashina va jihozlari, mulkka egalik huquqi, intellektual mulki kabilarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan foyda olish maqsadida tadbirkor faoliyatiga qo‘yish tushuniladi. Manba: Пардаев М. ва бошқалар. Инвестицион лойиҳалар таҳлили. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан ва технология, 2019. – Б.5.
6. Наманган ҳақиқати. – 2019 йил 2 февраль.
7. Ҳайдаров Ғ. Наманган вилоятининг ижтимоий-иқтисодий ҳамкорлик алоқалари тарихи (2018-2021 йй.)// Жамият ва инновациялар. Илмий электрон журнали. – 2021. № 2. – Б.289; <https://inscience.uz/index.php/socinov/article/view/489/620>
8. <http://elibrary.ru/item.asp?id=35328109>
9. <http://elibrary.ru/item.asp?id=23651574>
10. <https://lex.uz/docs/3845273> , Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси
11. <http://andijan.uz/news/prezidentimizning-andijon-viloyatiga-tashrifi-boshlandi>
12. <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/prezidentimiz-shavkat-mirziyoyev-namangan-viloyatiga-keldi.html>
13. <https://fergana.uz/site/view/news/2527>
14. <https://president.uz/oz/lists/view/7393>
15. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/02/09/investment/>
16. <https://andstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/11225-andijon-viloyatida-xorijiy-investitsiya-ishtrokidagi-korxonalar-soni-nechta>